

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I 16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TASHEVA SEVARA RAVSHANOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA  
QO‘SHMA TA’LIM DASTURLARI DOIRASIDA TA’LIM SIFATINI  
BOSHQARISH**

**13.00.07 – Ta’limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Tasheva Sevara Ravshanovna**

О‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida qo‘shma ta‘lim dasturlari doirasida ta‘lim sifatini boshqarish..... 3

**Ташева Севара Равшановна**

Управление качеством образования в высших учебных заведениях Республики Узбекистан в рамках совместных образовательных программ..... 23

**Tasheva Sevara Ravshanovna**

Management of the education quality within the framework of joint educational programs in higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 50

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2020.I 16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASHI**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TASHEVA SEVARA RAVSHANOVNA**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA**  
**QO‘SHMA TA’LIM DASTURLARI DOIRASIDA TA’LIM SIFATINI**  
**BOSHQARISH**

**13.00.07 – Ta’limda menejment**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro'yxatga № B2024.1. PhD /Ped6907 raqami bilan olingan**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tayyorlangan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (xulosa)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.wosedu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rahmonqulova Nargiza Xodjiakbarovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2024 yil "27" 09 soat 16:00 da DSc.03/30.12.2020.И 16.02 sonli ilmiy kengash yigilishida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi (Manzil: Toshkent sh., Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23, elektron pochta: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida (1505da ro'yxatdan o'tgan) tanishish mumkin (Manzil: Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49; faks: (99871) 239 -41-23).

Dissertatsiya avtoreferati "10" 09 2024 yil tarqatilgan.  
(pochta protokoli reyestri № 31 0909 2024 yil).



**G.K. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalarni beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**O.D. Djurabayev**  
Ilmiy darajalarni beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**R.X. Karlibayeva**  
Ilmiy darajalarni beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (Doktorlik (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda raqobatning keskin darajada chuqurlashuvi sharoitida iqtisodiyotning rivojlanishi va ijtimoiy sohalar taraqqiyotida ta'lim sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bunda ta'lim sifatiga yuqori talablar qo'yilmoqda. YUNESKO deklaratsiyasida "dunyodagi o'zgarishlar sharoitidagi oliy ta'lim faoliyati uning mahalliy, milliy va xalqaro saviyalardagi funksiyalarini belgilab beruvchi uchta asosiy tamoyil – zamon talablariga javob berish, sifat va xalqarolashuvga asoslanishi lozim"<sup>1</sup> deb ta'kidlangan. Bugungi kunda jahonda qo'shma ta'lim dasturlarini (QTD) loyihalash, ularni tashkil qilish, dasturlar faoliyati va ta'lim sifatini boshqarish jarayonini tartibga solish kabi tadbirlar dolzabligicha qolmoqda.

Jahonda ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida, sohada integratsiyalashuv jarayoning muhimligiga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifatini boshqarish yo'nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etish va boshqarishda, ta'lim sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan turli yondashuvlar va metodikalarni takomillashtirish, qo'shma ta'lim dasturlari sifatini oshirish, dasturlarni akkreditatsiya qilish va sertifikatlash, monitoring va baholash uslubiyotini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim tizimi, jumladan, oliy ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, tizimning o'quv ta'minotini zamonaviy asoslarda ta'minlash, jumladan, oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosidagi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil qilish kabi tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra "oliy ta'lim doirasida respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash"<sup>2</sup> kabi maqsadlar belgilangan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda qo'shma ta'lim dasturlari menejmentining uslubiy asoslarini rivojlantirish, o'quv va qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish va transformatsiyasiga ko'ra muqobil dasturiy ta'minotni milliy xususiyatlarga ko'ra takomillashtirish, qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirishning pedagogik o'lchovlarga ko'ra maqsadli parametrlarini belgilash, tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

<sup>1</sup> Oliy ta'limning rivojlanishi va islohotlari. Dastur hujjati – YUNESKO, 1995, 8-bet

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (24.01.2020 y.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 21-sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va taprmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chopa-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishining I. “Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan N.X. Xakimov, S.T. Turg‘unov, M. Yuldashev, Z.M. Isakova, G.U. Radjabova, M.Mirsaliyeva, M.M. Tashxodjayevar<sup>3</sup> QTD doirasida ta‘lim jarayonini tashkil qilish va ta‘lim sifatini boshqarish masalalarini o‘z tadqiqotlarida ko‘tarishgan.

Hamdo‘stlik davlatlarida oliy ta‘limni tashkil qilish, boshqarish va sifatini nazorat qilish muammolari bo‘yicha S.A. Vdovina, Yu.D. Artamonova, A.N. Djurinskiy, A.A. Muravyeva, P.A. Novojilov, D.M.Pevzner<sup>4</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Qo‘shma ta‘lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha jahon amaliyotining muvaffaqiyatlari ko‘p jihatdan tegishli tadqiqotlar, tajribalar va ularning natijalari o‘rganilib, Asgary N., Robbert M., Kinser K., Zheng G., Cai Y., Merx G.W., Nolan R.W, R.Y. Chan<sup>5</sup> kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi.

---

<sup>3</sup> Н.Х. Хакимов. Совместные международные образовательные программы как важная форма подготовки высококвалифицированных кадров в Узбекистане / Иқтисодиёт ва таълим / 2021 № 1; S.T. Turg‘unov – Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari – monografiya – O‘zbekiston Respublikasi O‘zPFITi nashriyoti, 2014; Исакова З.М., Ахмадалиева С.М. Основные элементы методологии управления инновациями в вузах / Перспективы развития высшего образования/№5,2017 г., сс. 20-24; Раджабова Г., Гапсаламов, А. (2023). Современная система обеспечения и контроля качества высшего образования. «Наука и инновация» 1(17), сс. 4–8.

<sup>4</sup> Вдовина, С. А. Качество образования как педагогическая проблема // Молодой ученый. — 2015. — № 23 (103). — С. 940-942; Артамонова Ю. Д., Демчук А. Л., Караваева Е. В. Совместные образовательные программы вузов: состояние, проблемы, перспективы / М.: КДУ, 2011, 56 с.; Новожилов П.А., Поварова А.О. Контроль качества высшего образования в России и за рубежом // Human progress. – 2017. - Том 3, № 9; Певзнер Д.М. Развивающий потенциал международных образовательных программ в контексте интернационализации высшей школы // Россия, В. Новгород, 2013, стр. 3-5

<sup>5</sup> Asgary, N., & Robbert, M. A. (2010). A cost-benefit analysis of an international dual degree programme. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 32(3), 317-325; Zheng, G., Cai, Y. (2017). Towards an analytical framework for understanding the development of a quality assurance system in an international joint programme. *European Journal of Higher Education*, 7(3), 243-260; Chan Roy Y. (2016) – Understanding the purpose of higher education: an analysis of the economic and social benefits for completing a college degree - Indiana University, Bloomington, VOL. 6, ISSUE 5, pp. 1-41; Merx, G. W., & Nolan, R. W. (2015). *Internationalizing the academy:*

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, respublikamiz oliy ta’lim muassalarida qo‘shma ta’lim dasturlarini mahalliyashtirish bo‘yicha qator urinishlar amalga oshirilgan va bitiruvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini O‘zbekiston sharoitidagi bo‘lajak kasbiy faoliyatiga moslashtirish zarurligi mavjud. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida qo‘shma ta’lim dasturlarini mahalliyashtirish va ta’lim sifatini boshqarish bo‘yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ta’lim muassasalarida qo‘shma dasturlar asosida mutaxassis kadrlarning boshqaruvchanlik kompetentligini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oliy ta’lim muassasalarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim sifatining boshqarish bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish hamda qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish tendensiyasini va mahalliyashtirish imkoniyatlarini o‘rganish;

oliy ta’lim muassasalarida qo‘shma ta’lim dasturlarini tatbiq etish bo‘yicha tashkiliy jarayonlarni tartibga solish, ularni baholash hamda mehnat bozoriga moslashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

qo‘shma va mahalliy ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayoni sifatini boshqarish va qiyosiy tahlil qilish, talabalarning lingvistik kompetensiyasini aniqlash bo‘yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish;

oliy ta’lim muassasalarida qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim sifatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida ta’lim sifatining boshqaruvida lingvistik omillarning ahamiyatini o‘rganish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (O‘zbekiston Respublikasi) va Ural davlat iqtisodiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi) hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston Respublikasi) va Belarus davlat pedagogika universiteti (Belarus Respublikasi) o‘rtasidagi qo‘shma ta’lim dasturlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida oliy ta’lim muassasalarida qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni sifatini boshqarish mazmuni, usul va vositalari qaraladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tahliliy-sintetik, qiyosiy tahlil, analogiya, modellashtirish, diagnostik, prognostik, pedagogik tajriba-sinov, matematik va ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni tasvirlash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqaro dasturlarni o'zlashtirishda bilingval kompetentlik muhim vositalardan biri ekanligini inobatga olgan holda qo'shma ta'lim dasturlarining menejmenti doirasida «til immersiyasi» va «ta'lim patterni» kabi yangi atamalarni ilmiy-amaliy muomalaga kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

qo'shma ta'lim sifati nazoratining amaldagi tartibiga ko'ra (xalqaro bo'lim, ilmiy bo'lim, o'quv bo'limi va b.), o'quv va qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish va transformatsiyasiga ko'ra muqobil dasturiy ta'minotni shakllantirish va monitoring sifatini oshirishga ko'ra qo'shma ta'lim dasturi amaliyotini o'quv bo'limi boshqaruvida tashkil qilishning samarali ekanligi asoslangan;

qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmiga yangi moslashuv elementi kiritilgan bo'lib, ushbu elementning O'zbekistonda joriy qilinayotgan va joriy qilinishi rejalashtirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlarini mahalliy ta'lim standartlari, jumladan, Davlat ta'lim standartlariga moslashtirish jarayonining ta'lim sifati ijobiy dinamikasiga hissa qo'shishi asoslangan;

qo'shma ta'lim dasturlari va mazkur dasturlarni oliy ta'lim tizimida boshqarish samaradorligini oshirishda pedagogik o'lchovlarga ko'ra talabalar sonini asos sifatida qabul qilish va oliy ta'lim muassasining markaziy boshqaruv tuzilmasida "Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish" bo'limini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy o'quv yurtlarida joriy qilinayotgan qo'shma ta'lim dasturlarining faoliyati bilan bog'liq barcha saviyadagi masalalarning operativ va keng qamrovli yechimlarini amalda tatbiq etish hamda ta'lim sifatini boshqarish va baholash faoliyatini amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasining qo'shma ta'lim dasturlarining samarali boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llash uchun kon'yunktiv ta'lim dasturlari taklif qilingan va ularni milliy ta'lim va menejment talablariga moslashtirilish yo'llari ishlab chiqilgan;

oliy o'quv yurtlarida amalga tatbiq etilayotgan va rejalashtirilayotgan qo'shma ta'lim dasturlarini xronologik tasniflash tartibi ishlab chiqilgan;

qo'shma ta'lim dasturlari doirasida oliy ta'lim sifatini boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, matematik-statistik metodlar yordamida asoslanganligi, olingan natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning respublika va xalqaro anjumanlarda aprotatsiyadan o'tkazilganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining



ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, tavsiya va xulosalar oliy ta'lim muassasalarida qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, ta'lim sifatini boshqarish saviyasini oshirish, mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning metodologik asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalardan qo'shma ta'lim dasturlari samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy-tashkiliy hujjatlarni tayyorlash, yo'nalish (soha)ni rivojlanti-rishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini asoslash hamda qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha amalga oshirilayotgan o'quv jarayonida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oliy ta'lim muassasalarida qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

xalqaro dasturlarni o'zlashtirishda bilingval kompetentlik muhim vositalardan biri ekanligini inobatga olgan holda qo'shma ta'lim dasturlarining menejmenti doirasida «til immersiyasi» va «ta'lim patterni» kabi yangi atamalarni ilmiy-amaliy muomalaga kiritishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2024-yil 21-iyundagi №11-son Ilmiy Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan «Qo'shma ta'lim dasturlari doirasida ta'lim sifati boshqaruvini O'zbekiston sharoitida optimallashtirish» mavzusidagi metodik ko'rsatmalar tarkibiga kiritilgan. Taklif oliy o'quv yurtlaridagi qo'shma ta'lim dasturlariga asoslangan ta'lim jarayonini tashkillashtirish hamda ularning menejmenti doirasida mos tushunchalarni amalda qo'llash va ish faoliyatini takomillashtirishga uslubiy jihatdan xizmat qilgan;

qo'shma ta'lim sifati nazoratining amaldagi tartibiga ko'ra (xalqaro bo'lim, ilmiy bo'lim, o'quv bo'limi va b.) hamda o'quv va qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish va transformatsiyasiga ko'ra, muqobil dasturiy ta'minotni shakllantirish, monitoring sifatini oshirishga ko'ra QTD amaliyotini o'quv bo'limi boshqaruvida tashkil qilish bo'yicha taklif Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6-iyuldagi 421-son "O'zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida ta'lim faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan. Ushbu ilmiy taklif milliy va xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkilotlarining qo'shma ta'lim dasturlari sifati va samaradorligini oshirishga, qo'shma ta'lim dasturlarini milliy Davlat ta'lim standartlariga moslashtirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Oliy ta'lim muassasalaridagi qo'shma ta'lim dasturlarining ta'lim sifatini boshqarish bo'yicha faoliyatni olib borish, jumladan, o'quv va qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish va transformatsiyasiga ko'ra muqobil dasturiy ta'minotni shakllantirish va monitoring sifatini oshirishga ko'ra, qo'shma ta'lim dasturi amaliyotini o'quv bo'limi boshqaruvida tashkil qilishning samaradorligining

ilmiy asoslanganligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasida qo‘shma ta‘lim dasturlarini muvofiqlashtirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 2 ta yangi shtat elementi tashkil etildi;

qo‘shma ta‘lim dasturlari va mazkur dasturlarni oliy ta‘lim tizimida boshqarish samaradorligini oshirishda pedagogik o‘lchovlarga ko‘ra talabalar sonini asos sifatida qabul qilish va oliy ta‘lim markaziy boshqaruv tuzilmasida “Qo‘shma ta‘lim dasturlarini boshqarish” bo‘limini tashkil qilishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklifga ko‘ra Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining akademik boshqaruv tuzilmasida alohida bo‘lim ko‘rinishida “Qo‘shma ta‘lim dasturlarini muvofiqlashtirish“ bo‘limi tashkil qilindi (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 31-iyuldagi 04/14-2144-sonli ma‘lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida jami 7 ta maqola, shulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 100 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan; ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Oliy ta‘lim sifatini boshqarishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida qo‘shma ta‘lim dasturlari doirasida oliy ta‘lim sifatini boshqarish masalalari bo‘yicha o‘zbek va xorijiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlarning batafsil adabiyotlar sharhi, oliy ta‘lim muassasalarida qo‘shma ta‘lim dasturlarini joriy qilish tendensiyasi va istiqbollari hamda ularni mahalliy lashtirish imkoniyatlari bayon etilgan .

Oliy o‘quv yurtlarida “ta‘limni boshqarish” va “ta‘lim sifatini boshqarish” kabi tushunchalari bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan hamda ushbu tushunchalarga mualliflik ishchi ta‘riflari berilgan.

Bizning fikrimizcha, “Ta‘limni boshqarish” deganda, sifatli ta‘limni ta‘minlash va o‘quv faoliyatini rivojlantirish maqsadida ta‘lim jarayonini va resurslarni

rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirishga qaratilgan harakatlar majmui tushuniladi.

“Ta’lim sifatini boshqarish” deganda o‘quv jarayonini tashkil etishda va o‘tkazishda oliy ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlash, ta’lim standartlari talablariga va me’yorlarga rioya qilish, yuzaga keladigan real va potensial muammolarni bartaraf etish choralari ko‘rishga qaratilgan faoliyatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotlar doirasida ta’lim xizmatlari, xususan, qo‘shma ta’lim dasturlariga asoslangan oliy ta’lim jarayonidagi ta’lim sifatini nazorat qilishni tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatlar ham o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni xalqarolashtirishning asosiy yo‘nalishlari va jihatlari tahlil qilindi.

Oliy ta’lim muassalalarida qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etish holati, ta’lim jarayonini tashkil qilish shakllari, ijobiy tomonlari va ushbu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar ochib berildi. Shuningdek, qo‘shma ta’lim dasturlarini amalda joriy etish samaradorligini xolisona bashorat qilish, ularning istiqbollari va imkoniyatlarini mezoniy baholash muhimligi qayd etildi. QTD doirasidagi hamkorlik oliy ta’limni xalqarolashtirish (internatsionalizatsiyalash) jarayonini jadallashtirishi mumkinligi aniqlandi. Xalqarolashuv jarayonida oliy ta’limda xalqaro hamkorlik va madaniyatlararo bag‘rikenglik ruhini ham shakllantirish imkoniyatlari oshadi. Oliy ta’lim jarayonining xalqarolashuvi quyidagi asosiy jarayonlar bilan izohlangan:

jahon normalari va talablariga muvofiq oliy ta’limning standartlashtirish asoslarini shakllantirish;

O‘zbekiston ta’lim xizmatlari bozorining jahon darajasiga chiqishi jarayonini jadallashtirish;

mamlakatning xalqaro oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari reytinglarda o‘z o‘rnini egallashini va universitetlararo raqobatni yo‘lga qo‘yish;

jahon miqyosida davlat manfaatlarini oliy ta’lim kontekstida himoya qilish.

Oliy ta’limni xalqarolashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, balki davlat va institutsional darajada xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shuningdek, oliy ta’limni xalqarolashtirish orqali va shu tariqa, xorijiy talabalarni jalb qilish orqali moliyaviy tushumni oshirish, o‘quv reja va dasturlarni xalqaro normalarga moslashtirish va takomillashtirish, OTMlar regional tarmoqlarini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish hamda talaba va o‘qituvchilar tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yishni ham nazarda tutadi.

Oliy ta’limning xalqarolashuvi mexanizmi ta’lim jarayonini jahon andozalariga va talablari asosida standartlashtirilishiga bevosita ta’sir qiladi. Tabiiyki, oliy ta’lim muassasalarining hammasi ham bunday keskin o‘zgarishlarga muayyan sabablarga ko‘ra tayyor bo‘lmaydi. Bu, asosan, oliy ta’limda qat’iy belgilangan ta’lim standartlarining mavjudligi, o‘quv jarayonini tashkil etish an’analari “o‘rnashib” olganligi va mavjud mahalliy ta’lim dasturlari aniq belgilangan vaqt doirasida tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

O‘zbekistonda mustaqilligining dastlabki yillaridanoq “maktabgacha ta’lim – maktab – professional ta’lim, oliy ta’lim – oliy ta’limdan keyingi ta’lim” uzluksiz ta’lim tizimi uchun Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilgan. Biroq, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning xalqaro mehnat bozoriga jadal integratsiyalashuvi, oliy ta’limning xalqarolashuvi ta’lim standartlarining ayrim jihatlari qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Oliy ta’limning xalqarolashuvi an‘analari uning barcha tadqiqot yo‘nalishlarining xalqarolashuvini nazarda tutadi; QTD doirasidagi o‘zaro tajriba almashinuvi esa bu jarayonning jadallashishiga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida joriy qilinayotgan ta’lim dasturlarini umumlashtirish va integratsiyalashuvini tavsiflovchi **“ta’lim dasturlarini o‘zaro adaptatsiyalash”** (moslashtirish) amaliyoti taklif qilindi. Ta’lim dasturlarini o‘zaro moslashtirish jarayonidagi ijobiy dinamikaga erishilishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.07.2021-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori asos bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur bobda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etishning zaruriy shartlari keltirib o‘tilgan. QTD uchun tashkiliy-pedagogik hodisa sifatida qo‘yiladigan mezoniy talablar ochib berilgan. Oliy ta’limning xalqarolashuvi jarayoni, uning shart-sharoitlari va an‘analarini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bugungi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida 300 dan ortiq qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Qo‘shma ta’lim dasturlarining joriy etilishi talabalarga muvofiq va keng miqyosda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga va kasbiy o‘shishga, o‘quv rejalarini xalqaro standartlarga moslashtirishga, ilg‘or tajribalarni o‘rganishga imkoniyatlar yaratadi.

Qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilishning afzalliklari bilan bir qatorda, o‘quv jarayonini tashkil etishdagi qator muammolarning mavjudligi aniqlandi, xususan:

o‘quv reja va dasturlarni muvofiqlashtirish bilan bog‘liq muammolar;

qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha ikki tomonlama mutaxassislikni tan olinish bilan bog‘liq muammolar;

an‘anaviy va qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish metodikalari orasidagi farq;

qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha mahalliy pedagog kadrlarni tayyorlashdagi qiyinchiliklar shular jumlasidandir.

Bizning fikrimizcha, qo'shma ta'lim dasturlarini samarali qo'llashda milliy xususiyatlarni, mahalliy ehtiyojlarni, ish beruvchi talabalarini inobatga olib o'quv rejalarini muvofiqlashtirish lozim.

O'tkazilgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni sifatini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish, strategik menejmentni rivojlantirish, IT texnologiyalaridan ta'lim jarayonida va boshqaruvda samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Qo'shma ta'lim dasturlarida oliy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi”** bobida qo'shma ta'lim va mahalliy ta'lim dasturlari muhim xususiyatlarining qiyosiy tahlili, qo'shma ta'lim dasturlarida ta'lim sifatini boshqarish mazmuni, tuzilmasi va mexanizmi bayon etilgan.


Zamonaviy ta'lim muhitida mahalliy va qo'shma ta'lim dasturlarini qiyosiy tahlil qilish muhim hisoblanadi. Davlat oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash davlat organlari tomonidan tasdiqlangan standartlar va tamoyillarga asoslanadi hamda o'zida keng doiradagi o'quv predmetlar majmuasini qamrab oladi. Biroq, davlat oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlari asosida tasdiqlangan o'quv reja va o'qitish shakllari hamda metodikalari bilan chegaralanadi. Bu holat talabalarga nisbatan to'liq individual yondashuvni to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi. Qo'shma ta'lim dasturlari esa talabalarga turli ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olish imkoniyatini berib, mazkur dasturlarga asoslanuvchi ta'lim jarayonida individual yondashuv amalga oshiriladi; bu, o'z navbatida, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ilg'or tajribalarni o'rganishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda, xususan, O'zbekistonda qo'shma ta'lim dasturlarini o'zaro kelishish hukumat saviyasida talab qilinishi ta'kidlangan.

Ushbu bobda qo'shma ta'lim dasturlarining muhim xususiyatlariga quyidagilar, ya'ni o'quv jarayonini tashkil etish usullari, ixtisoslik fanlari, ta'lim darajalari, o'quv jarayoni olib borilishi hamda ta'lim sifatining baholanishida hisobga olinadigan boshqa ta'limiy xususiyatlari kiritilgan:

Biz tomondan qo'shma ta'lim dasturlari kontekstida oliy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmining takomillashtirilgan tuzilmasi ishlab chiqildi (1-rasm). QTDlarni boshqarish mexanizmi ta'lim jarayonining yaxlitligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida ko'p bosqichli va tugal bo'lishi, shuningdek, talabalarining oliy ta'limdan ko'zlayotgan maqsadlariga erishishlarini va mehnat bozoriga nisbatan moslashuvchan bo'lishini ta'minlashning dolzarbligi asoslab berilgan. Ushbu talablarning bajarilishi QTD doirasida oliy ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi va natijada bunday dasturlar talabalarda mutaxassislik bo'yicha chuqurroq va har tomonlama kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlaydi, ularning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi, qobiliyatlarini rivojlantiradi va mehnat bozorida istiqbollarni ochadi. Mexanizmga yangi, qo'shma ta'lim dasturlarining mahalliyashtirilishini ta'minlashga qaratilgan moslashuv parametri qo'shilgan.

Shuningdek, QTDda oliy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmining asosiy ahamiyati ularni xalqaro andozalarga moslashtirilishi hisoblanadi. Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmiga turli madaniy, til va ta'lim standartlarining xalqaro

talablarga javob berishini ta'minlash bilan bog'liq menejment faoliyati ham kiradi.



**1-rasm. QTDda oliy ta'lim sifatini boshqarishning takomillashtirilgan mexanizmi<sup>6</sup>**

Bizning fikrimizcha, oliy talimda QTD bo'yicha ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi moslashuvchan bo'lishi, talabalarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va talablariga, qonunchilikdagi o'zgarishlar va mehnat bozori talablariga, shuningdek, yangi texnologiyalar va o'qitish usullariga tez moslashuvchan bo'lishi kerak.

Strategik rejalashtirishda qo'shma ta'lim dasturlarini uzoq muddatli maqsad va vazifalarini, oliy ta'lim sifatini boshqarish istiqbollari ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Ta'lim sifatini ta'minlash va baholash o'zida tashqi va ichki monitoringni hamda o'quv reja va dasturlarni doimiy tahlil qilib borish jarayonini qamrab oladi.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan shakllantirilgan va takomillashtirilgan

Natijalar taxlili va monitoring oliy ta'lim sifatini boshqarish jarayoniga tuzatishlar kiritish hamda yaxshilashga yo'naltirilgan.

Ta'lim sifatini boshqarish va xavflarni aniqlash jarayoni potensial xavflarni tahlil qilish, aniqlash va ularni tuzatish yo'llarini hamda oliy ta'lim muassasalarida boshqarish mexanizmining istiqbolli rejalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Teskari aloqa tizimi o'qituvchi va talabalar orasidagi qaytar aloqani ta'minlaydi.

Tuzilmada **“QTDning amaliy likvidligi”** tushunchasi, uning sifatli menejmenti nuqtai nazaridan amalga tadbiiq etiluvchanligi ochib berilgan. QTDning amaliy likvidligi oliy ta'limning tasdiqlangan sifat standartlariga javob beradigan, kamida qoniqarli tashkiliy tuzilma va ta'lim sifatiga ega bo'lgan mustaqil ta'lim dasturi sifatida shakllantirilishi mumkin bo'lgan ta'lim dasturining taqdim etilgan mezonlari va muhim xususiyatlari to'plamidir. QTDning amaliy likvidligini ta'minlash QTDlarning boshqaruvining vazifalaridan biri bo'lib, bunda menejment sifatini boshqarish, kadrlar tanlovi va MTR boshqaruvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya ishida QTDning asosiy xususiyatlari va ta'lim sifati, QTDni loyihalash va ishlab chiqish va amalga oshirish kabi komponentlar ilmiy asoslangan. QTD doirasida oliy ta'lim sifatini boshqarish jarayoniga mahalliy va xalqaro standartlarga javob beruvchi xodimlarning kasbiy yo'riqnomalari sifati, menejment tafsilotlarini ta'minlash kiritilgan. Mazkur talablar ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, pedagogik kadrlar va h.k.ga nisbatan muayyan talab va mezonlarni o'rnatadi. O'z navbatida, ta'lim sifati talablariga javob beruvchi QTD bitiruvchilari odatiy yoki nostandart kasbiy vaziyatlarda to'g'ri va malakali yechimni taklif eta olishlari uchun yetarlicha bilimga ega bo'lishlari lozim. Tabiiyki, bunga talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligi orqali erishiladi. QTD kontekstida oliy ta'lim sifati talabalar egallashi kerak bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar, shuningdek, o'quv metodlari sifati, ta'lim dasturining tarkibi va bitiruvchilar oldida qanday kasbiy istiqbollor ochilishi mumkinligi asosida baholanadi. QTD doirasida oliy ta'lim sifatini baholashning xolisona mezonlari ham shu yo'sinda shakllantirildi.


Bobda oliy ta'lim tizimining tashkiliy tuzilmasida «qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi»ni tashkil etish bo'yicha ilmiy taklif berildi va oliy o'quv yurti akademik tuzilmasida qo'shma ta'lim dasturlarining muvofiqlashtirishi, ulardagi ta'lim jarayoni va ta'lim sifatining nazorati mazkur bo'limga yuklatilishi belgilab o'tildi. Taklif qilingan bo'lim Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti akademik boshqaruv tuzilmasida tashkil etildi va tasdiqlandi.

«Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi» fakultetlar qoshida tashkil qilinadi, va shu tariqa, QTDlarning menedjmenti va ulardagi ta'lim jarayoni sifatining nazorati bevosita o'quv bo'limi zimmasiga yuklatiladi. O'z navbatida, QTD faoliyati bilan bog'liq faoliyatdan xalqaro aloqalar bo'limi qisman yoki to'liq ozod etilishi mumkin. (2-rasm).

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, QTDlarni amalga tatbiiq etishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, jumladan:

QTD doirasida hamkorlik qiluvchi tomonlarning qonunchiligidagi nomuvofiqliklar: ayrim mamlakatlarda joriy qilinayotgan yoki rejalashtirilayotgan

QTDlarning akkreditatsiyasi va sertifikatlanishi bo'yicha talablar qo'yilsa, ba'zi mamlakatlarda bunday talablar qo'yilmaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda QTDlarni joriy etishni me'yorlashtiruvchi, tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organ mavjud emas. Mazkur dissertatsiya ishida ushbu masalaning Respublika sharoitidagi yechimi taklif etilgan. Ayni paytda, O'zbekistonda QTDlarining joriy etilishini hamda mamlakat miqyosida monitoring qilish tartiblari tasdiqlanmagan;



**2-rasm. Taklif qilinayotgan «Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi»ning oliy ta'lim muassasi tashkiliy tuzilmasidagi o'rni<sup>7</sup>**

qo'shma va mahalliy ta'lim dasturlarini xronologik tashkil etishdagi farqlar. Har ikkala turdagi ta'lim dasturlari turli ta'lim muddatiga ega bo'lishi mumkin. Bu holda talabning yakuniy attestatsiyasi muvofiqlashtirilmaydi va talaba ham mahalliy, ham chet el talablari asosida yakuniy attestatsiya imtihonlaridan o'tishga majbur bo'ladi;

professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarning lingvistik malakasi sifati (chet tilidagi ta'limga asoslangan o'quv jarayonida) pastligi muammosi mavjud.

Dissertatsiyada QTDni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni hisobga olgandan so'nggina ularning tashkil etilishini ko'rib chiqish mumkinligi haqida tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilishni amalga oshirishga qaratilgan quyidagi yondashuvlar va shakllar borligi aniqlandi:

1. Idoraviy (tarmoqli) nazorat. Mazkur nazorat ta'lim tizimida yuqori organlar tomonidan quyi organlar faoliyatining nazorati amalga oshiriladi. Nazoratning ushbu turiga bir martalik litsenziya berish, nazoratning davriy shakllari (masalan,

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan va amalga tatbiq qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024- yil 31-iyuldagi 04/14-2144-sonli ma'lumotnomasi)



attestatsiya), shuningdek, yuqori tashkilotlarning boshqaruv va tarkibiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan kundalik (tezkor) nazorat kiradi.

2. Ichki nazorat (o'z-o'zini nazorat qilish) oliy ta'lim muassasi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Ushbu turdagi nazorat ta'lim jarayonini Davlat ta'lim standarti, ta'lim sohasidagi boshqa qonuniy hujjatlar asosida mustaqil tekshirish, tahlil qilish va faoliyatini baholashni nazarda tutadi. Odatda, o'z-o'zini nazorat qilish shaklidagi ta'lim sifatini nazorat qilish jarayoni ta'limning muayyan tashkiliy tuzilmasi yoki faoliyat yo'nalishi bo'yicha, ta'lim jarayonini tashkillashtirishni attestatsiyalashning muhim bosqichi sifatida amalga oshiriladi.

3. Idorausti nazorati. Bunday nazorat shakli oliy ta'lim tizimiga bevosita bog'liq bo'lmagan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Idorausti nazorati asosan ta'lim muassasining muayyan faoliyat yo'nalishlarini tekshirishni nazarda tutadi. Bunda ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishi tekshiriladi; o'quv jarayonini tashkil etish, uning sifati, uslubiy, ilmiy-tadqiqot, tarbiyaviy ishlar sohasidagi faoliyatlar; bitiruvchilarning bilimi saviyasi va sifatining ta'lim standartlari talablariga muvofiqligi; moddiy-texnik ta'minot, kadrlar salohiyati; talabalarning salomatligi va hayot faoliyati xavfsizligi, ularning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini muhofaza qilish standartlarining rioya qilinishi o'rganiladi.

4. Oliy ta'lim muassasi attestatsiyasi. Attestatsiya oliy ta'lim muassasi faoliyatining normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini, shu jumladan, bitiruvchilarning bilimi saviyasi va sifatining ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini har tomonlama tekshirish va baholashni o'z ichiga oladi. Akkreditatsiya qilingan ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra akkreditatsiyani tasdiqlash yoki bekor qilish to'g'risida mos qaror qabul qilinadi. Attestatsiya ko'rinishidagi oliy ta'lim sifatining boshqaruvi tegishli me'yoriy hujjatlarda, qonunchilik doirasida tasdiqlangan davrlarda o'tkaziladi va uning asosida Respublikada ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati monitoringi amalga oshiriladi.

